



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

XORAZM VILOYATIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR VA ULARNING TURISTIK AHAMIYATI

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Yangi Asr universiteti, akademik bo'lim boshlig'i (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyati hududida joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik, ilmiy va turistik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida viloyatdagi tabiiy qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar va boshqa muhofaza ostidagi hududlarning biologik xilma-xillikni saqlashdagi o'rni hamda ularning barqaror turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, Amudaryo deltasi hududining noyob ekotizimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirishdagi salohiyati alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ekoturizm, Xorazm viloyati, tabiiy resurslar, turizm, ekologik turizm, rekreatsion salohiyat, barqaror rivojlanish.

ОХРАНЯЕМЫЕ ПРИРОДНЫЕ ТЕРРИТОРИИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ ТУРИСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Муминов Азизбек Зиёвиддинович

Университет «Yangi Asr», начальник академического отдела (PhD)

Аннотация

В данной статье проводится анализ экологического, научного и туристического значения особо охраняемых природных территорий, расположенных на территории Хорезмской области. В ходе исследования изучена роль природных заповедников, заказников и других охраняемых территорий региона в сохранении биологического разнообразия, а также их возможности в развитии устойчивого туризма. В частности, подробно освещены уникальная экосистема дельты Амударьи, её флора и фауна, а также потенциал развития экологического туризма в данном регионе.

Ключевые слова: туризм, экотуризм, Хорезмская область, природные ресурсы, экологический туризм, рекреационный потенциал, устойчивое развитие.

PROTECTED NATURAL AREAS OF KHOREZM REGION AND THEIR TOURISM SIGNIFICANCE

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Yangi Asr University, Head of Academic Department (PhD)

Abstract

This article analyzes the ecological, scientific, and tourism significance of specially protected natural areas located within the Khorezm region. The study examines the role of nature reserves, wildlife sanctuaries, and other protected areas of the region in the conservation of biodiversity, as well as their potential for the development of sustainable tourism. In particular, special attention is given to the unique ecosystem of the Amu Darya delta, its flora and fauna, and the prospects for the development of ecotourism in this region.

Keywords: tourism, ecotourism, Khorezm region, natural resources, ecological tourism, recreational potential, sustainable development.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari mavjud tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida turizmga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimizda ham turizm sohasini

iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biriga aylantirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalarini imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin"ligini alohida qayd etib, "...biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur" ekanligini ta'kidlagan [1]. O'zbekistonda davlat tabiat qo'riqxonalarini noyob va o'ziga xos ekotizimlarni, o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini hamda alohida turlarni saqlash, muhofaza qilish va o'rganish, ekologik-ma'rifiy tadbirlar hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida davlat tomonidan muhofaza qilinadigan tabiiy hudud sifatida faoliyat yuritadi [2].

Xorazm viloyati O'zbekistonning eng qadimiy va tarixiy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda tabiiy va madaniy meros nihoyatda boydir. Viloyatda bir qator muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud bo'lib, ular ekologik muvozanatni saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, shuningdek, turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Xiva atrofi cho'l hududlari O'zbekistonning eng qadimiy cho'l landshaftlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda qumtepalar, o'ziga xos o'simliklar va turli xil hayvonot dunyosi mavjud. Ayniqsa, mazkur hududlarda qishloq xo'jaligi va turizmni qo'llab-quvvatlovchi tabiiy resurslar jamlangan.

Xorazm viloyatida turizm salohiyatini, uning tarixiy-madaniy xususiyatlari va tabiiy-iqlim sharoitlarini targ'ib qilishda turli xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, xorijiy davlatlar vakillarini taklif etgan holda festivallar va sport musobaqalari uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Qovun sayli", "Raqs sehri", "Xorazm madaniyati kunlari" kabi festivallarga xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan qatnashchilar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Tadqiqotchi Odamboev Xorazm viloyati O'zbekistonning jahon turizmi bozorida munosib o'rin egallashida mustahkam zamin yaratishini ta'kidlab, viloyatda jami 254 ta madaniy meros yodgorligi mavjudligini, shundan 18 tasi arxeologiya, 132 tasi me'morchilik, 66 tasi haykaltaroshlik, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas qadamjoldan iborat ekanini qayd etadi. Shuningdek, Xiva shahri YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilganini alohida ta'kidlaydi [3]. Professor B. Ruzmetov esa turizm bozoridagi uzoq muddatli tendensiyalar tahlili asosida Xorazm viloyatida turizmning istiqbolli rivojlanishi turizm, iqtisodiyot, demografiya, ekologiya, texnologiya va boshqa sohalaridagi bir qator bozor tendensiyalariga bog'liqligini ko'rsatib o'tadi [4]. Sh. M. Abdurazzakova va Sh. O. Raimjonovalar ham o'z tadqiqotlarida Xorazm viloyatining turizm salohiyatidan unumli foydalanish, uni jadal rivojlantirish, yangi dam olish maskanlarini barpo etish, zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish, soha uchun investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilayotganini qayd etadilar [5]. Umuman, Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'pincha hududning landshaft va tabiat resurslari imkoniyatlarini, shuningdek, ekologik muhofaza qilish talablarini hisobga olgan holda olib borilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Bu esa viloyatning tabiiy-geografik sharoitlari, ekologik holati, suv va yer resurslari hamda tabiat yodgorliklarining turizm salohiyatini yoritish imkonini berdi. Jumladan, tizimli tahlil usuli orqali Xorazm viloyatidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tarkibi, ularning funksional xususiyatlari va o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Shuningdek, taqqoslash usuli yordamida viloyat hududidagi turli toifadagi muhofaza etiladigan hududlar — qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, tabiiy yodgorliklar — ning o'ziga xos jihatlari va turistik salohiyati solishtirildi. Bu esa viloyatda tarixiy va ziyorat turizmi bilan bir qatorda tabiat bilan bog'liq turizm tarmoqlarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va turistik obyektlarga yaqinligini tahlil qilishda kartografik usul ham muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot davomida nazariy ma'lumotlarni boyitish maqsadida adabiyotlar tahlili usulidan foydalanilib,

mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda soha bo'yicha mavjud manbalarni o'rganish orqali hududlarning turistik jozibadorligi va rivojlantirish istiqbollari aniqlashtirildi.

Xorazm viloyatida turizmning rivojlanishida tabiiy resurslar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va ularning tavsifini A. Nig'matov va N. Shomuratovalar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko'ra, mamlakat hududi o'n to'rt ekoturistik rayonga ajratilgan [6]. Shulardan Amudaryo rayoniga Xorazm viloyati ham kiritilgan. Amudaryoning o'zaniga yaqin har ikki sohilida to'qayzorlar mavjud bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft ko'rinishlaridan hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan. Ushbu hududga ma'rifiy-ma'naviy maqsadda tashriflarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Ornitofaunani saqlash uchun esa Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari, Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha davrga oid burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metr bo'lgan Sulton Vays tog'lariga ham ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning qo'hna o'lkalaridan biri bo'lgan Xorazm joylashgan bo'lib, bu yerda arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bois ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks tarzda olib borish tavsiya etiladi [7].

Viloyatga kelayotgan sayyohlarga an'anaviy sayyohlik yo'nalishlari bilan bir qatorda turizmning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan ekoturizmni taklif qilish, ularning qiziqishlariga qarab turli qatlamdagi sayyohlarni jalb etish imkonini beradi. Viloyatning tabiiy resurslari hamda biologik xilma-xilligi ichki va xalqaro turizm uchun yangi turizm mahsulotlarini yaratish imkoniyatini beradi. Jumladan, "Qizilqum" davlat qo'riqxonasi zonasida, Amudaryo sohillarida, G'ovuqko'l va Eshonravot ko'llarida ekoturistik obyektlarni tashkil etish orqali hudud imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin. Ekoturizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjud bo'lib, Bog'ot, Xonqa va Urganch tumanlarining Amudaryo sohilida ekoturizm va mehmonxona xo'jaligi xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari katta. Shuningdek, mintaqadagi "Qizilqum" davlat qo'riqxonasi hududida ham ekoturizm xizmatlarini yo'lga qo'yish mumkin. Ushbu qo'riqxonada Amudaryoning o'rta oqim qismida, asosan Xorazm viloyatining Tuproqqal'a va qisman Buxoro viloyatining Romitan tumanlarida joylashgan.

Xorazm viloyatining Gurlan tumani Beruniy va Amudaryo tumanlari bilan chegaradosh hududlarida joylashgan rezervatning ekoturizm salohiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu maqsadda 3 ta ekoturizm marshruti tashkil etilgan [8]. Bunday marshrutlar suv-botqoq yerlarida qushlarni kuzatish (birdwatching), tabiatni o'rganish va ekologik sayohatlar uyushtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, biologik xilma-xillikni o'rganishga qiziqqan tadqiqotchilar uchun bu hudud ilmiy turizm markazi sifatida ham ahamiyatlidir. Madaniy sayohatlar nuqtayi nazaridan esa Amudaryo deltasining mahalliy aholisi va ularning an'anaviy turmush tarzi bilan tanishish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Xiva tumanidagi "Eshonravot" tabiiy suv ombori qirg'og'ida joylashgan "Qizilqum" lageri, "Deshan-Qal'a" va "Ichan-Qal'a" tarixiy yodgorliklari, "Boltaboy oqsoqol", "Valiko Plyus" va "Qoraqum" xo'jaliklari hududning turistik jozibadorligini oshiruvchi maskanlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, Yangiariq tumanida 2400 gektar maydonda suv havzasiga ega bo'lgan "Ulli Sho'rko'l" ("Xorazm dengizi") dam olish zonasi, Bog'ot tumanida "Qalajiqqal'a Oasis Ecoturism" ekoturizm fermasi, Urganch tumanida esa "Urganch ELtur" ekozonasi joylashgan [9].

"Urganch ELtur" ekozonasi Xorazm viloyati Urganch tumanida, Amudaryo bo'yida joylashgan bo'lib, uning maydoni 26 gektarni tashkil etadi. Daryo bo'yida o'tovlarda yashash, yozgi oshxona tashkil etish, baliq ovlash va to'qayzor o'rtasidagi go'zal tabiat qo'ynida dam olish imkoniyatlari mavjud. "Boltaboy oqsoqol" xo'jaligi esa "Eshonravot" tabiiy suv havzasi yoqasida joylashgan bo'lib, u yerda barcha qulayliklarga ega o'tovli oromgohlar, zamonaviy jahon

standartlariga mos kichik mehmonxona, tennis korti, motorli va mexanik qayiqlar, skuterlar hamda katamaranlar mavjud. Shu bilan birga, 200 gektarlik qumli qo'riqxonaga bo'yab piyoda va tuyada sayohatlar uyushtiriladi.

“Qoraqum” fermasi “Boltaboy oqsoqol” xo'jaligiga tutash hududda joylashgan. Bu yerda milliy uslubda bezatilgan restoranga ega kemping maydoni mavjud. Obyekt o'tovlar lageri, motorli va mexanik qayiqlar, skuterlar va katamaranlar bilan ham jihozlangan. Shuningdek, qadimgi Xivadagi Islom-Xoja minorasining nusxasi qurilgan bo'lib, u yerdan hududning go'zal manzarasini tomosha qilish mumkin. “Valiko Plyus” ekoturizm fermasi Xivadan atigi 12 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, ekoturizm yo'nalishlari fermaning 700 gektarlik tepaliklari bo'yab tashkil etilgan. Hududda 16 gektar maydonda baliq yetishtiriladigan ko'l mavjud. Sayyohlar baliq ovlashi va yangi tutilgan baliqlardan milliy baliq taomlari tayyorlanishini kuzatishi mumkin. Umuman, viloyatning tabiiy obyektlari ekologik, etnografik, ekstremal va sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishlarini kengaytirishga asos bo'la olishi qayd etildi.

Xorazm viloyatining tabiiy obyektlari o'zining boy tarixiy shakllanish jarayoni, o'ziga xos geomorfologik tuzilishi hamda tabiiy-geografik sharoitlari bilan respublikaning eng muhim turistik hududlaridan biri hisoblanadi. Xorazmda tabiiy hududlar nafaqat ekologik, balki madaniy ahamiyatga ham ega. Ushbu hududda qadimiy qadriyatlarni saqlab qolish va tabiat bilan uyg'unlikda yashash orqali sayyohlar tarixiy va tabiiy merosni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Urganch shahri va uning atrofidagi o'rmonlar hamda tabiiy landshaftlar, ayniqsa, turistlar uchun qiziqarli bo'lib, tabiiy yodgorliklar bilan boyitilgan. Xususan, o'rmonlar va tog'lar tabiatni sevuvchilar uchun ideal manzillar bo'lib, bu hududlar ekologik turizm uchun juda mos keladi. Xorazm viloyatining tabiiy hududlari ekoturizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega. Hududdagi cho'l, o'rmon, daryo va ko'llar sayyohlar uchun jozibador manzillarni taklif etadi. Tabiatni sevuvchilar, fotografiya ixlosmandlari va ekologik turizm bilan shug'ullanuvchilar uchun bu yerda juda katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular viloyatni mashhur turizm markaziga aylantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Маърифат. – 2017. – 23 декабрь.
2. “Алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. – Тошкент, 1993. – 7 май // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1993. – № 6. – 255-модда.
3. Одамбоев О. Ҳаёт давомида кўриш керак бўлган шаҳар // Халқ сўзи. – 2018. – 20 июнь. – № 124 (7082).
4. Ruzmetov B. Xorazm viloyatida 2023–2030 yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi // Innovatsion iqtisodiyot. – 2023. – № 1. – B. 163–167.
5. Abdurazzakova Sh. M., Raimjonova Sh. O. Xorazm viloyati turizm salohiyati va gidlar tahlili // VIII International Forum of Guides “Tourist and Excursion Activities: New Challenges and Ways of Development”. – 2025. – B. 43–46.
6. Nig'matov A., Shomuratova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi. – Toshkent, 2007. – № 2. – B. 45.
7. Matmurodov M. Ekoturizm: ma'ruzalar matni. – Nukus, 2008. – 78 b.
8. Bekbulatova G. A., Tajibaeva L.R. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning roli // O'zbekiston Respublikasi hududlarini barqaror rivojlantirishning geografik asoslari respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – B. 150–154.
9. Xorazm mintaqasidagi ekologik yo'nalishlar va Xorazm milliy tabiat bog'i. – URL: <https://uzbekistan.travel/uz>